MASOFAVIY TA’LIMDA KASBIY KOMPETENTLIK TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK MAZMUNI: TAQQOSLOVCHI TAHLIL

Baxronova Sayyora Botir qizi
Osiyo Xalqaro universiteti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada masofaviy ta’lim sharoitida kasbiy kompetentlik tushunchasining pedagogik mazmuni nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada kompetentlik va kompetensiya tushunchalarining o‘zaro farqi, ularning pedagogik adabiyotlarda talqin etilishi, shuningdek, masofaviy ta’lim muhitida kasbiy kompetentlikning tarkibiy komponentlari ochib beriladi. Olingan natijalar masofaviy ta’lim sharoitida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslarini aniqlashtirishga xizmat qiladi hamda pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar. Masofaviy ta’lim, kasbiy kompetentlik, kompetensiya, pedagogik mazmun, raqamli ta’lim muhiti, kompetensiyaga asoslangan ta’lim.

Аннотация. В данной научной статье с теоретико-методологических позиций анализируется педагогическое содержание понятия профессиональной компетентности в условиях дистанционного обучения. В статье раскрываются различия между понятиями «компетентность» и «компетенция», их интерпретации в педагогической литературе, а также структурные компоненты профессиональной компетентности в дистанционной образовательной среде. Полученные результаты способствуют уточнению педагогических основ формирования профессиональной компетентности в условиях дистанционного обучения и имеют научно-практическую значимость для совершенствования процесса подготовки педагогических кадров.

Ключевые слова. Дистанционное обучение, профессиональная компетентность, компетенция, педагогическое содержание, цифровая образовательная среда, компетентностно-ориентированное обучение.

Abstract. This scientific article provides a theoretical and methodological analysis of the pedagogical content of the concept of professional competence in the context of distance education. The article examines the differences between the concepts of “competence” and “competency,” their interpretations in pedagogical literature, as well as the structural components of professional competence within a distance learning environment. The obtained results contribute to clarifying the pedagogical foundations for the formation of professional competence in distance education and

ISSN 3030-3907

have scientific and practical significance for improving the process of teacher training.

Keywords: Distance education, professional competence, competency, pedagogical content, digital learning environment, competency-based education.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar va masofaviy o‘qitish shakllarining keng joriy etilishi ta’lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. Shu nuqtai nazardan, kasbiy kompetentlik tushunchasining pedagogik mohiyatini masofaviy ta’lim sharoitida qayta talqin qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

Hozirgi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablar tubdan yangilanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ta’lim jarayonining raqamli muhitga ko‘chishi va masofaviy ta’lim shakllarining ommalashuvi ta’lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligiga nisbatan yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Endilikda faqat bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash emas, balki ularni amaliy faoliyatda samarali qo‘llay olish, mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri yechim topish kabi sifatlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa ta’lim jarayonida kasbiy kompetentlikni shakllantirish masalasini dolzarb pedagogik muammo sifatida kun tartibiga olib chiqadi.


Masofaviy ta’lim sharoitida ta’lim oluvchilar bilan bevosita muloqotning cheklanganligi, o‘quv faoliyatining asosan mustaqil tashkil etilishi, raqamli resurslar va virtual muhitga tayanilishi kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonining mazmuni va mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Shu sababli kasbiy kompetentlik tushunchasining pedagogik mazmunini masofaviy ta’lim nuqtai nazaridan ilmiy asosda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Kasbiy kompetentlik tushunchasining pedagogik talqini.

Pedagogik adabiyotlarda “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari ko‘pincha bir-biriga yaqin ma’noda qo‘llanilsa-da, ularning mazmunida muayyan farqlar mavjud. Kompetensiya odatda shaxsning muayyan faoliyat sohasiga oid bilim, ko‘nikma va malakalar majmuini ifodalasa, kompetentlik ushbu kompetensiyalarni real faoliyat jarayonida samarali qo‘llay olish qobiliyatini anglatadi. Demak, kompetentlik bilimning mavjudligi emas, balki uni amaliy faoliyatga tatbiq eta olish darajasini ifodalaydi.

Kompetentlik turlarini ko’rib chiqamiz:

ISSN 3030-3907



1-rasm. A.R.Markova tasnifi bo‘yicha pedagog kompetentligi turlari.

Oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilarning pedagogik kasbiy kompetentligi, avvalo, ularning bilim va malakalarini muntazam ravishda rivojlantirib borishiga bog‘liqdir. Bunda ular turli axborot manbalari orqali yangidan-yangi ma’lumotlarni o‘zlashtiradi, zamonaviy ta’lim talablarining mohiyatini chuqur anglaydi hamda ilmiy-pedagogik yangiliklarni izlab topishga intiladi. Shu bilan birga, olingan bilimlarni kreativ yondashuv asosida qayta ishlab, o‘z amaliy faoliyatida samarali tatbiq etadi. Pedagogik kompetentlik, shuningdek, murakkab va noaniq vaziyatlarda vazifalarni mustaqil hal etish, asosli qarorlar qabul qilish, axborotlardan oqilona foydalanish hamda kutilmagan holatlarga moslashuvchan harakat qilish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda masofaviy va elektron ta’lim ta’lim tizimining eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning shakllanish jarayoni dastlab 1980-yillarda masofadan o‘qitish va televizion kurslar orqali boshlangan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining uzluksiz taraqqiyoti natijasida hozirgi davrda ta’lim jarayonida hududiy masofa deyarli sezilmaydi, zamonaviy raqamli platformalar esa talaba yoki tinglovchiga o‘zini real auditoriya muhitida his etish imkonini bermoqda.

Masofaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchining kasbiy kompetentligi turli multimedia vositalaridan samarali foydalanish orqali namoyon bo‘ladi, ya’ni audio va video darslar, interaktiv taqdimotlar, elektron darsliklar, Word va PDF formatidagi o‘quv materiallari bilan ishlash imkoniyatlari kengaymoqda. Shuningdek, vebinarlar, chatlar, forumlar hamda sun’iy intellekt asosidagi tahliliy va baholash vositalari orqali o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqot mustahkamlanib, hamkorlikda o‘rganishga asoslangan faol ta’lim muhiti shakllanmoqda. Bu esa professor-o‘qituvchilardan yuqori darajadagi pedagogik, raqamli va kommunikativ kompetentlikka ega bo‘lishni talab etadi.

Kasbiy kompetentlik masalalari, ayni paytdagi pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va menejment sohasida faoliyat yuritayotgan talqiqotchilarning diqqat markazidagi masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Ularning fikrlarini umumlashtirgan holda kasbiy kompetentlik asosining o‘ziga xos modelini taklif

ISSN 3030-3907

etish mumkin. Tavsiya etilgan modelda keltirilgan parametrlarni o‘rgangan holda, ular o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik va bir-birini to‘ldirish xususiyatlari mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, turli shart-sharoitlarga moslasha olish, bir vaqtning o‘zida, zamon talablarini to‘g‘ri anglash va qaror qabul qilish bilan bog‘liqdir.



2-rasm. Kasbiy kompetentlik asoslari modeli.

Masofaviy ta’lim sharoitida kasbiy kompetentlikni shakllantirish an’anaviy auditoriya mashg‘ulotlariga nisbatan o‘ziga xos pedagogik xususiyatlarga ega. Avvalo, ta’lim jarayonining asosan virtual muhitda tashkil etilishi o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir shakllarini o‘zgartiradi. Bunda ta’lim oluvchining o‘quv faoliyati ko‘proq mustaqil, o‘zini-o‘zi boshqarishga asoslangan bo‘lib, bu holat kasbiy kompetentlik tarkibida mustaqil qaror qabul qilish, mas’uliyatni his etish va o‘z faoliyatini rejalashtirish kabi sifatlarning kuchayishini talab etadi.

Masofaviy ta’limda kasbiy kompetentlikning muhim jihatlaridan biri — raqamli ta’lim muhitida samarali faoliyat yurita olish qobiliyatidir. Bu jarayonda talaba nafaqat o‘quv materiallarini o‘zlashtiradi, balki turli elektron resurslar, ta’lim platformalari, onlayn muloqot vositalaridan maqsadli va ongli foydalanishni ham o‘rganadi. Shu bois kasbiy kompetentlikning pedagogik mazmuniga raqamli savodxonlik, axborotni tanlash va tahlil qilish, virtual muhitda muloqot madaniyati kabi komponentlar ham kiradi.

Masofaviy ta’lim sharoitida o‘quv jarayonining moslashuvchanligi talabaning individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirishga imkon beradi. Bu

ISSN 3030-3907

holat kasbiy kompetentlikning shaxsga yo‘naltirilgan xarakterini kuchaytiradi. Talaba o‘z bilim darajasi, qiziqishlari va kasbiy ehtiyojlariga mos ravishda o‘quv faoliyatini tashkil etishi natijasida kasbiy rivojlanishga ongli yondasha boshlaydi. Pedagogik jihatdan bu jarayon talabaning ichki motivatsiyasini oshirish va kasbiy o‘zini anglashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, masofaviy ta’lim sharoitida baholash jarayonining o‘zgarishi ham kasbiy kompetentlik mazmuniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. An’anaviy nazorat shakllari o‘rnini ko‘proq jarayonli, formatif baholash usullari egallaydi. Bu esa talabaning o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini anglash va ularni bartaraf etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada refleksiv kompetentlik kasbiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanadi.

Pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kasbiy kompetentlik murakkab va ko‘p komponentli tuzilma bo‘lib, u bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bir nechta tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Masofaviy ta’lim sharoitida ushbu komponentlarning mazmuni va ahamiyati yanada boyiydi.

Kognitiv komponent kasbiy faoliyatga oid nazariy bilimlar, tushunchalar va ilmiy asoslarni o‘z ichiga oladi. Masofaviy ta’limda bu bilimlar ko‘pincha elektron darsliklar, video ma’ruzalar, onlayn kurslar orqali o‘zlashtiriladi. Shu sababli talabaning axborotni mustaqil o‘rganish, tizimlashtirish va umumlashtirish qobiliyati kognitiv komponentning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Faoliyat (operatsion) komponent kasbiy bilim va ko‘nikmalarni amaliy faoliyatda qo‘llay olish bilan bog‘liq. Masofaviy ta’lim sharoitida ushbu komponent virtual laboratoriyalar, amaliy topshiriqlar, loyiha va keyslar orqali rivojlantiriladi. Bu jarayonda talaba real kasbiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan muammolarni hal qilish orqali kasbiy tajriba to‘playdi.

Motivatsion-qadriyatli komponent talabaning tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishi, kasbiy qadriyatlari va o‘z kasbiy faoliyatiga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Masofaviy ta’limda ushbu komponentni shakllantirish o‘qituvchining pedagogik mahorati, ta’lim mazmunining dolzarbligi va o‘quv faoliyatining amaliy yo‘naltirilganligiga bevosita bog‘liq.

Refleksiv komponent talabaning o‘z kasbiy faoliyatini baholash, o‘z-o‘zini tahlil qilish va rivojlanish istiqbollarini belgilash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Masofaviy ta’lim sharoitida refleksiya bloglar, elektron portfoliolar, o‘z-o‘zini baholash topshiriqlari orqali samarali amalga oshiriladi.

Ushbu komponentlarning uyg‘un rivojlanishi masofaviy ta’lim sharoitida kasbiy kompetentlikning yaxlit pedagogik tizim sifatida shakllanishini ta’minlaydi.

Yuqoridagi nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ta’lim sharoitida kasbiy kompetentlik tushunchasi an’anaviy ta’lim tizimidagiga nisbatan kengroq

ISSN 3030-3907

pedagogik mazmunga ega bo‘lmoqda. Raqamli ta’lim muhiti ta’lim oluvchidan nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni, balki mustaqil ta’lim olish, o‘z faoliyatini rejalashtirish va refleksiya qilish kabi sifatlarni ham talab etadi. Shu sababli kasbiy kompetentlik masofaviy ta’lim sharoitida kompleks pedagogik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Unda kognitiv, faoliyatga oid, motivatsion-qadriyatli va refleksiv komponentlar o‘zaro uzviy bog‘liqlikda shakllanadi. Mazkur komponentlarning uyg‘un rivojlanishi ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Masofaviy ta’lim jarayonida pedagogik ta’sir vositalarining o‘zgarishi kasbiy kompetentlikni shakllantirishga yangicha yondashuvlarni talab etadi. Bu esa mazkur tushunchaning pedagogik mazmunini yanada chuqurroq ilmiy asoslash zaruratini yuzaga keltiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, masofaviy ta’lim sharoitida kasbiy kompetentlik tushunchasi zamonaviy pedagogikaning muhim kategoriyalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kasbiy kompetentlik faqat bilim, ko‘nikma va malakalar majmui bilan cheklanmay, balki ularni real kasbiy faoliyatda samarali qo‘llay olish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Masofaviy ta’lim muhitida ushbu tushuncha raqamli savodxonlik, mustaqil ta’lim olish, o‘z-o‘zini boshqarish va refleksiya qilish kabi pedagogik jihatlar bilan boyiydi. Kasbiy kompetentlikning kognitiv, faoliyatga oid, motivatsion-qadriyatli va refleksiv komponentlari masofaviy ta’lim sharoitida o‘zaro uyg‘un holda shakllanishi ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlaydi. Tadqiqot davomida kasbiy kompetentlik tushunchasining pedagogik mazmuni masofaviy ta’lim nuqtai nazaridan aniqlashtirildi va nazariy jihatdan asoslab berildi. Olingan ilmiy xulosalar pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish, masofaviy ta’limni samarali tashkil etish hamda kompetensiyaga asoslangan ta’lim yondashuvlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida masofaviy ta’lim sharoitida kasbiy kompetentlikni shakllantirishga oid amaliy tadqiqotlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Kurbonov G. (2022). Didactic possibilities of teaching general subjects on the basis of digital educational technologies. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.5 Pedagogical sciences).
2. Rasulov T., & Kurbonov G. (2022). Developing students'creative and scientific skills with modern educational technologies. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.5 Pedagogical sciences).
3. Bakhronova S.B. (2025). Applications of integral calculus in economic fields. *Pedagogik tadqiqotlar jurnali*, *3*(2), 81-83.

ISSN 3030-3907

4. Bakhronova S.B. (2025). The important role of mathematics in solving problems in physics. *Pedagogik tadqiqotlar jurnali*, *3*(1), 444-448.
5. Bakhronova, S. B. (2024). The system of wave equations involved by the riman-liouville fractional-order operator into the canonical form. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, *2*(9), 184-192.
6. Turdiev, K., Bahronova, S., & Amrulloyeva, Z. (2024). Existence of a solution to the problem posed for a system of fractional diffusion equations: Existence of a solution to the problem posed for a system of fractional diffusion equations. *MODERN PROBLEMS AND PROSPECTS OF APPLIED MATHEMATICS*, *1*(01).
7. Kurbonov G. G. (2022, September). Improved methodology of organizing distance science circles from general sciences. In internatio
8. Baxronova . . (2025). OLIY TA'LIMDA MATEMATIKA O'QITISHDA XALQARO TAJRIBADAN FOYDALANISH. Development Of Science, 5(1), pp. 78-86.
9. Baxronova S. B. (2025). SMART TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MATEMATIK MODEL VA VIZUAL VOSITALAR BILAN O'QITISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI. Development Of Science, 6(5), pp. 168-175.

ISSN 3030-3907